

26 fevral 2025 yil.

20/3-9-son

**“T A S D I Q L A Y M A N”**

O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vazirligi
huzuridagi budjetdan tashqari
Pensiya jamg‘armasi
ijro etuvchi direktori

M. Atadjanov

2025-yil ____ yanvar

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi ijro etuvchi apparatining davlat pensiya ta‘minoti tizimini yanada takomillashtirish, tizim faoliyatini yaxshilash, pensiyalarni to‘g‘ri tayinlash hamda to‘lanishi sifatini oshirish, mablag‘larni maqsadli va manzilli sarflanishini ta‘minlash yuzasidan 2025-yil uchun
ISH REJASI

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro uchun mas‘ullar
I. TO‘LOV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA DAROMADLAR HISOBINI YURITISH BO‘LIMI			
1.	“Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi Qonunning 12-moddasiga asosan imtiyozli shartlarda tayinlangan pensiya ishlari “Pensiya” dasturiga to‘g‘ri birlashtirilishini xatlovdan o‘tkazib, haqiqiy xarajatlarni Soliq qo‘mitasi orqali korxonalar va tashkilotlarning shaxsiy hisob kartalariga elektron tarzda joylashtirish;	2025-yil 28 fevral	A.Xolmatov Sh.Gayberdiyev M.Normatov
2.	O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonunidan kelib chiqib budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining 2025-yil I choragi uchun bergilangan daromadlar prognoz ko‘rsatkichini ishlab chiqish va tasdiqlatish;	2025-yil 28 fevral	A.Xolmatov Sh.Gayberdiyev M.Normatov

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar
4.	Joylarda pensiya to'lovlari uchun vedomostlarini o'z vaqtida tuzilishi hamda "Xalq banki" va tijorat banklariga "Pensiya" dasturi orqali yuborilishini tashkil etish;	Har oyda keyingi oyning 5-sanasi	A.Xolmatov M.O'rinboyev D.Karabayev
5.	Soliq qo'mitasining ma'lumotlariga asosan, jamg'arma oldidagi qarzdorliklari mavjud korxonalar va tashkilotlar tahlil qilinib, tegishli korxonalarga xatlar yuborish;	2025-yil 15-mart	A.Xolmatov Sh.Gayberdiyev M.Normatov
6.	2024-yil pensiya va boshqa to'lov xarajatlari hamda qoldiqlar bo'yicha hududiy G'aznachilik va Pensiya jamg'armasi boshqarmalari tomonidan solishtirma dalolatnomalar tuzilishini tashkil etish;	Har oyda keyingi oyning 10-sanasi	A. Xolmatov M.O'rinboyev D.Karabayev S. Ruziyev
7.	Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining 2024-yil daromad va xarajatlari ijrosi to'g'risida hisobotlarni tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga kiritish;	2025-yil 31-mart	A.Xolmatov M.O'rinboyev Sh.Gayberdiyev
8.	Pensiya va boshqa to'lovlarni manzilliligi hamda qonun talablariga mosligi yuzasidan o'tkazilgan o'rganishlar natijalari va aniqlangan xatoliklar bo'yicha Markaziy bank va Xalq bankiga xat yuborish;	2025-yil 28 fevral	A. Xolmatov M.O'rinboyev D.Karabayev S. Ruziyev
9.	Pensiya to'lovlari bo'lgan talabnomalarni hududiy boshqarmalar tomonidan muddatida taqdim qilinishini ta'minlash va ularga muvofiq respublika bo'yicha jamlash;	2025-yil 31-mart	A. Xolmatov M.O'rinboyev D.Karabayev S. Ruziyev
10.	2025-yilga manbalar bo'yicha Jamg'armaning daromadlari va xarajatlari prognozlarini ishlab chiqish va Jamg'armaning Kuzatuv kengashiga kiritish uchun mas'ul bo'limga kiritish;	2025-yil 31-mart	A.Xolmatov M.O'rinboyev Sh.Gayberdiyev
11.	Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining 2025-yil I chorak uchun belgilangan prognoz ko'rsatkichlarining bajarilishini hududlar va manbalar kesimida tahlil qilish, natijalari yuzasidan rahbariyatga ma'lumotlar tayyorlab kiritish;	2025-yil I chorakda keyingi	A.Xolmatov Sh.Gayberdiyev M.Normatov

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar
		oyning 5-sanasi	
12.	2025-yil I chorak yakuni bilan budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromad va xarajatlari to'g'risida hisobotlarni Iqtisodiyot va moliya vazirligi Davlat budjeti departamentiga taqdim etish;	2025-yil 5-aprel	A.Xolmatov M.O'rinboyev Sh.Gayberdiyev
13.	O'zbekiston Respublikasining "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonunidan kelib chiqib budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining 2025-yil II choragi uchun belgilangan daromadlar prognoz ko'rsatkichini ishlab chiqish va tasdiqlatish;	2025-yil 5-aprel	A.Xolmatov Sh.Gayberdiyev M.Normatov
14.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlariga asosan, ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va faxriylariga moddiy yordam pullarini dasturda shakllantirish va belgilangan tartibda to'lovlarni amalga oshirish;	2025-yil 31-may	A.Xolmatov M.O'rinboyev D.Karabayev S. Ruziyev
15.	2025-yil I chorak yakuni bilan pensiya oluvchilarni pensiya to'lovlariga huquqlarini tanlov asosida o'rganishlar natijasida aniqlangan xato-kamchiliklar yuzasidan Markaziy bank va AT "Xalq banki"ga xat yuborish;	2025-yil 31-may	A.Xolmatov M.O'rinboyev D.Karabayev
16.	2024-yil IV chorak va 2025-yil I chorakda hisoblangan jarimalar summasining bir qismi hamda majburiy va boshqa to'lovlar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun penyalarni qonun hujjatlariga muvofiq Jamg'armaning ijtimoiy rivojlantirish va moddiy-texnik ta'minlash maxsus jamg'armasiga hamda xodimlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy rag'batlantirish jamg'armasiga undiriladigan summalar to'g'risida solishtirma dalolatnomalarni hududiy boshqarmalardan yig'ish va Soliq qo'mitasidan imzolotish;	2025-yil 30-aprel	A.Xolmatov Sh.Gayberdiyev M.Normatov
17.	Pensiya to'lovlariga bo'lgan talabnomalarni hududiy boshqarmalar tomonidan muddatida taqdim qilinishini ta'minlash va ularga muvofiq respublika bo'yicha jamlash hamda rahbariyatga Jamg'armaning haqiqiy xarajatlari to'g'risida ma'lumot taqdim qilish;	2025-yil 30-iyun	A.Xolmatov M.O'rinboyev D.Karabayev S. Ruziyev
18.	O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan 2024-yil yakunlariga bag'ishlangan Jamg'armaning haqiqiy daromad va xarajatlarni o'rganishlar natijasi bilan xato-kamchiliklar aniqlangan taqdirda bartaraf etish cholarini ko'rish;	2025-yil 30-iyun	A.Xolmatov M.O'rinboyev Sh.Gayberdiyev

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar
19.	Boquvchisini yo'qotgan taqdirda, shuningdek mehnatda mayib bo'lganlik yoki xodim mehnat majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarga sarflangan mablag'larni "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda undirish choralari ko'rish;	Doimiy	A.Xolmatov Sh.Gayberdiyev M.Normatov
20.	Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlarida pensiya to'lovi vedomostlarini o'z vaqtida tuzilishi hamda AT "Xalq banki" va tijorat banklariga "Pensiya" dasturi orqali to'lov topshiriqnomalarini yuborilishini tashkil etish;	Doimiy	A.Xolmatov M.O'rinboyev D.Karabayev
21.	Pensiya oluvchi fuqarolarni vafoti munosabati bilan aniqlangan ortiqcha to'lovlari Pensiya jamg'armasining maxsus hisob raqamiga undirish choralarni ko'rish;	Doimiy	A.Xolmatov M.O'rinboyev D.Karabayev
22.	"O'zbekiston Respublikasining 2026-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari hamda 2027-2028-yillarga budget mo'ljallari to'g'risida"gi Qonuniga pensiya jamg'armasining daromad va harajatlari prognoz ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumotlarni Iqtisodiyot va moliya vazirligining Davlat budjeti departamentiga taqdim etish;	2025-yil 31-iyul	A.Xolmatov M.O'rinboyev Sh.Gayberdiyev
23.	2025-yil II chorakda hisoblangan jarimalar summasining bir qismi hamda majburiy va boshqa to'lovlar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun penyalari qonun hujjatlariga muvofiq Jamg'armaning ijtimoiy rivojlantirish va moddiy-texnik ta'minlash maxsus jamg'armasiga hamda xodimlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy rag'batlantirish jamg'armasiga undiriladigan summalar to'g'risida solishtirma dalolatnomalarni hududiy boshqarmalardan yig'ish va Soliq qo'mitasidan imzolatish;	2025-yil 31-iyul	A.Xolmatov Sh.Gayberdiyev M.Normatov
24.	Soliq qo'mitasining ma'lumotlariga asosan, Jamg'arma oldidagi qarzdorliklari mavjud korxonalar va tashkilotlarga qarzdorliklarni qoplash yuzasidan xatlar yuborish;	Doimiy	A.Xolmatov Sh.Gayberdiyev M.Normatov

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar
25.	O'zbekiston Respublikasining "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonunidan kelib chiqib budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining 2025-yil IV choragi uchun belgilangan daromadlar prognoz ko'rsatkichini ishlab chiqish va imzolatish;	2025-yil 17-oktabr	A.Xolmatov Sh.Gayberdiyev M.Normatov
26.	Davlat budjeti va Ijtimoiy sohani moliyalashtirish departamentlari bilan hamkorlikda kompensatsiya to'lovlarini moliyalashtirish uchun mablag'larni respublika budjetidan 2026-yil uchun Pensiya jamg'armasiga ajratiladigan mablag'larni hisob-kitoblarini taqdim etish;	2025-yil 30-noyabr	A.Xolmatov M.O'rinboyev
27.	2025-yil III chorakda hisoblangan jarimalar summasining bir qismi hamda majburiy va boshqa to'lovlar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun penyalar (qonun hujjatlariga muvofiq Jamg'armaning ijtimoiy rivojlantirish va moddiy-texnik ta'minlash maxsus jamg'armasiga hamda xodimlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy rag'batlantirish jamg'armasiga undiriladigan summalar to'g'risida solishtirma dalolatnomalarni hududiy boshqarmalardan yig'ish va Soliq qo'mitasidan imzolatish;	2025-yil 30-noyabr	A.Xolmatov Sh.Gayberdiyev M.Normatov
28.	"2026-yil Davlat budjeti to'g'risidagi" Qonun loyihasiga kutilayotgan pensiya va kompensatsiya to'lovlari uchun xarajatlar miqdorlarini Davlat budjeti departamentiga taqdim etish;	2025-yil 15-dekabr	A.Xolmatov M.O'rinboyev Sh.Gayberdiyev
29.	Davlat budjeti departamenti va G'aznachilik bilan birga tashkil etib pensiya to'lovlari uchun Davlat budjetidan 2026-yil uchun Pensiya jamg'armasiga transfert mablag'larini hisob-kitoblar qilish va Davlat budjetiga taqdim etish;	2025-yil 15-dekabr	A.Xolmatov M.O'rinboyev Sh.Gayberdiyev
30.	2025-yil yakuni bilan Pensiya jamg'armasi tomonidan ajratiladigan pensiya to'lovlaridan hududlarda ortgan mablag'larni Jamg'armaga qaytarish ishlarini amalga oshirish;	2025-yil 31-dekabr	A.Xolmatov M.O'rinboyev D.Karabayev
31.	"Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasi "b"-bandlariga muvofiq tayinlangan imtiyozli pensiyalarni to'lashga xarajatlarni budjet tashkilotlari qoplash uchun mablag'lar to'g'risida ma'lumotlarni Davlat budjetiga taqdim etish;	2025-yil 15-dekabr	A.Xolmatov Sh.Gayberdiyev M.Normatov

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar
32.	“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasi “b”-bandlariga muvofiq tayinlangan imtiyozli pensiya ishlarini to’liq inventarizatsiyadan o‘tkazish;	2025-yil 31-dekabr	A.Xolmatov Sh.Gayberdiyev M.Normatov
33.	Pensiya va boshqa to’lovlar uchun talab etiladigan mablag‘larni har oyning 5-sanasiga qadar plastik kartalari orqali pensiya mablag‘larini oluvchilarning shaxsiy hisobvaraqlariga moliyalashtirishi;	Doimiy	A.Xolmatov M.O‘rinboyev D.Karabayev
II. AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH VA RAQAMLASHTIRISH BO‘LIMI			
34.	Fuqarolar O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqqanda pensiyasini to‘xtatilishi yoki to‘xtatib turilishi yuzasidan “Pensiya” dasturiy majmuasi hamda Davlat personallashtirish markazi axborot tizimlari o‘rtasida axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish;	2025-yil fevral	K.Xodjibekov J.Xolmo‘minov
35.	Pensiya yoshiga to‘lgan fuqaroning mahalla fuqarolar yig‘ini kesimida yashash joyi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni olish uchun Ichki ishlar vazirligining “Manzil” axborot tizimi hamda “Pensiya” dasturiy majmuasi o‘rtasida axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish;	2025-yil fevral	K.Xodjibekov I.Karimov
36.	Pensiya yoshiga to‘lgan fuqaroning pasport (identifikatsiya ID-karta) ma‘lumotlarini olish uchun Davlat personallashtirish markazi axborot tizimi hamda “Pensiya” dasturiy majmuasi o‘rtasida axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish;	2025-yil fevral	K.Xodjibekov X.Xojiev
37.	Pensiya yoshiga to‘lgan fuqaroga pensiya tayinlanganligi yoki rad etilganligi sabablari yuzasidan SMS xabar yuborish maqsadida Raqamli texnologiyalar vazirligi axborot tizimi hamda “Pensiya” dasturiy majmuasi o‘rtasida axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish;	2025-yil 28-fevral	K.Xodjibekov J.Xolmo‘minov
38.	Pensiya yoshiga to‘lgan fuqaroga pensiya tayinlanganligi yoki rad etilganligi sabablari yuzasidan xabarnoma yuborish maqsadida “O‘zbekiston pochta” AJning Elektron pochta jo‘natmalarining yagona milliy tizimi hamda “Pensiya” dasturiy majmuasi o‘rtasida axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish;	2025-yil 28-fevral	K.Xodjibekov I.Karimov

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar
39.	Fuqarolarga yoshga doir pensiyalarni "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasida belgilangan yoshga to'lishi munosabati bilan alohida murojaat talab etmagan holda proaktiv shaklda tayinlash tartibini joriy etish;	2025-yil 1-mart	K.Xodjibekov G.Kasimova
40.	Davlat pensiyasini oluvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni "Elektron sog'liqni saqlash" axborot tizimiga integratsiya qilgan holda ma'lumotlarni onlayn tarzda taqdim etish imkoniyatini yaratish;	2025-yil 31-mart	K.Xodjibekov I.Karimov
41.	Ma'lumotlar paneli (dashboard) yaratish;	2025-yil 31-mart	K.Xodjibekov I.Karimov
42.	Oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchilar, shuningdek, ixtiyoriy to'lovchilar tomonidan to'lanadigan ijtimoiy soliq ma'lumotlarini olish maqsadida Soliq qo'mitasi axborot tizimi hamda "Pensiya" dasturiy majmuasi o'rtasida axborot almashinuvini yo'lga qo'yish;	2025-yil 30-aprel	K.Xodjibekov J.Xolmo'minov
43.	"Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12, 14 va 15 moddalariga asosan korxonalar va tashkilotlarning Pensiya jamg'armasi oldidagi qarzdorlar ma'lumotlarini olish maqsadida Soliq qo'mitasi axborot tizimi hamda "Pensiya" dasturiy majmuasi o'rtasida axborot almashinuvini yo'lga qo'yish;	2025-yil 31-may	K.Xodjibekov X.Xojiyev
44.	Korxonalar va tashkilotlarning Pensiya jamg'armasi oldidagi qarzdorliklarini undirish yuzasidan dasturda shakllantirilgan da'vo arizalarini elektron shaklda yuborish maqsadida Oliy sud axborot tizimi hamda "Pensiya" dasturiy majmuasi o'rtasida axborot almashinuvini yo'lga qo'yish;	2025-yil 30-iyun	K.Xodjibekov X.Xojiyev
45.	Pensiya jamg'armasi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi axborot tizimlari o'rtasida yo'lga qo'yilgan ma'lumot almashinuviga o'zgartirish kiritish;	2025-yil 31-iyul	K.Xodjibekov G.Kasimova
46.	Pensiya jamg'armasi va Ijtimoiy himoya milliy agentligi bilan "Ijtimoiy karta" bo'yicha axborot almashinuvini yo'lga qo'yish;	2025-yil 31-avgust	K.Xodjibekov I.Karimov
47.	Pensioner o'zining yashash manzilini o'zgartirgan taqdirda pensiya ishini boshqa hududga ko'chirishi yuzasidan Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qilishini yo'lga qo'yish;	2025-yil 30-sentabr	K.Xodjibekov J.Xolmo'minov

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar
48.	Pensiya oluvchilarga qulaylik yaratish maqsadida to'lov joyini bank plastik kartasidan naqd pul shakliga o'tkazish bo'yicha arizalarni Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qilinishini yo'lga qo'yish;	2025-yil 31-oktabr	K.Xodjibekov I.Karimov
49.	Pensiya oluvchilar tomonidan ularning pensiyalariga qo'yilgan chegirmalar haqidagi ma'lumotlarni olish maqsadida Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qilinishini yo'lga qo'yish;	2025-yil 30-noyabr	K.Xodjibekov G.Kasimova
50.	Pensioner O'zbekiston Respublikasi tashqarisiga chiqib uch oydan ortiq vaqt mobaynida O'zbekiston Respublikasiga qaytib kelmaganida to'xtatilgan pensiyani tiklash bo'yicha Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ariza berish xizmatini joriy etish;	2025-yil 31-dekabr	K.Xodjibekov X.Xojiyev
III. NORMATIV BAZANI TAKOMILLASHTIRISH BO'LIMI			
51.	O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining 2024-yildagi faoliyati yakunlari hamda 2025-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan asosiy vazifalari hisoboti to'g'risida Kuzatuv kengashi qarori loyihasini ishlab chiqish;	2025-yil 5-aprel	N.Jo'rayev L.Ziyoxiddinov J.Murodov
52.	Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 29-oktabrdagi 714-son qarori bilan pensiya to'lovlarini to'lashga oid normalar Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomda muvofiqlashtirilganligidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik tijorat Xalq banki bo'linmalari orqali ishlaydigan pensionerlarga pensiyalar, nafaqalar va boshqa to'lovlarni to'lashni tashkil etish to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqidagi qarori, shuningdek unga o'zgartirishlarni o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risidagi qaror loyihasini (ro'yxat raqami 2980, 14.03.2018-y.) vazirlik va idoralar bilan kelishish va Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tkazish;	2025-yil 5-aprel	N.Jo'rayev L.Ziyoxiddinov J.Murodov
53.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi PF-185-son Farmonida belgilangan uy-joy-kommunal xizmatlar haqini to'lash bo'yicha kompensatsiya pul to'lovlarini to'lash bilan bog'liq o'zgartirishlarga muvofiqlashtirish maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirining "Uy-joy-kommunal xizmatlar haqini to'lash bo'yicha kompensatsiya pul to'lovlarining mexanizmi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish	2025-yil 5-aprel	N.Jo'rayev M.Kochkarov

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar
	va qo'shimchalar kiritish haqida"gi (ro'yxat raqami 2175, 30.10.2010-y.) buyruq loyihasini ishlab chiqish, Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishish, jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish va Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tkazish;		
54.	Nogironlik pensiyalarini tayinlash va qayta hisoblash jarayonini fuqaroning murojaatini talab etmagan holda "proaktiv shaklda" amalga oshirish tartibini joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholiga pensiyalar va kompensatsiya pul to'lovlarini tayinlash va to'lash bo'yicha ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni loyihasini Adliya vazirligi bilan kelishilgan holda Vazirlar Mahkamasiga kiritilishi hamda mas'ul shaxs ishtirokida ko'rib chiqilishini tashkillashtirish;	2025-yil 5-aprel	N.Jo'rayev J.Murodov L.Ziyoxiddinov
55.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-oktabrdagi PQ-353-son qaroriga asosan yoshga doir pensiyalarni fuqaroning alohida murojaatini talab etmagan holda "proaktiv shaklda" tayinlash tartibini belgilovchi normalarni kiritish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun loyihasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senat tomonidan ma'qullanishini tashkillashtirish;	2025-yil 5-iyul	N.Jo'rayev L.Ziyoxiddinov J.Murodov
56.	Pensiya va kompensatsiya to'lovlarini to'lash tartiblariga aniqlik kiritish, Pensiya jamg'armasining faoliyatini takomillashtirishga oid normalarni muvofiqlashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi PF-185-son Farmonidan kelib chiqib tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini ishlab chiqish, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, vazirlik va idoralar bilan kelishish, jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish va Adliya vazirligiga kiritish;	2025-yil 5-sentabr	N.Jo'rayev L.Ziyoxiddinov J.Kosimov

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar
57.	Oxirgi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyati, o'zgartirish va qo'shimchalar yuzasidan infografika va bukletlar tayyorlash hamda hududiy boshqarmalar va tuman (shahar) bo'limlariga yetkazilishini tashkil etish;	2025-yil 5-aprel	N.Jo'rayev L.Ziyoxiddinov M.Kochkarov
58.	Pensiya tayinlash, qayta hisoblash va to'lashda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha Pensiya qonunchiligiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan hududlardan takliflar yig'ish;	2025-yil 30-aprel	N.Jo'rayev M.Kochkarov J.Kosimov
59.	Nogironlik pensiyalarini tayinlash va qayta hisoblash jarayonini fuqaroning murojaatini talab etmagan holda "proaktiv shaklda" amalga oshirish tartibini joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholiga pensiyalar va kompensatsiya pul to'lovlarini tayinlash va to'lash bo'yicha ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori loyihasini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritilishi va tasdiqlanishini tashkillashtirish;	2025-yil 30-may	N.Jo'rayev L.Ziyoxiddinov J.Murodov
60.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-oktabrdagi PQ-353-son qaroriga asosan yoshga doir pensiyalarni fuqaroning alohida murojaatini talab etmagan holda "proaktiv shaklda" tayinlash tartibini belgilovchi normalarni kiritish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun loyihasini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolanishini tashkillashtirish;	2025-yil 30-noyabr	N.Jo'rayev L.Ziyoxiddinov
61.	Pensiya va kompensatsiya to'lovlarini to'lash tartiblariga aniqlik kiritish, Pensiya jamg'armasining faoliyatini takomillashtirishga oid normalarni muvofiqlashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi PF-185-son Farmonidan kelib chiqib tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish, mas'ul xodimi bilan ish jarayonida ko'rib chiqish,	2025-yil 31-dekabr	N.Jo'rayev L.Ziyoxiddinov J.Kosimov

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar
	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi bilan kelishish va qaror qabul qilinishini tashkillashtirish;		
62.	Sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarni inventarizatsiyadan o'tkazish, ularni qabul qilingan hujjatlarga muvofiqligini ta'minlash, ahamiyatini yo'qotgan hujjatlar va qoidalarni bekor qilish va korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish natijasida aniqlangan korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish bo'yicha huquqiy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;	Doimiy	N.Jo'rayev Bo'lim xodimlari
63.	Pensiyalar tayinlash, qayta hisoblash, to'lash hamda tiklashga oid qonun, qaror va me'yoriy-huquqiy hujjatlarga zamon talablaridan kelib chiqib o'zgartirish va qo'shimcha kiritish to'g'risida takliflar tayyorlash;	Doimiy	N.Jo'rayev Bo'lim xodimlari
64.	Pensiya jamg'armasining hududiy boshqarma va tuman (shahar) bo'lim xodimlariga uslubiy yo'nalish va tushuntirishlar berish maqsadida o'quv seminarlar o'tkazish;	Reja-grafik bo'yicha	N.Jo'rayev Bo'lim xodimlari
65.	Vazirlik va idoralar tomonidan kelishish uchun kiritilgan qonunchilik hujjatlarini ko'rib chiqib taklif va e'tirozlar tayyorlash;	Doimiy	N.Jo'rayev Bo'lim xodimlari
66.	Yangi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar hamda amaldagi o'zgartirish va qo'shimchalar yuzasidan OAVda chiqishlar qilish;	Reja-grafik bo'yicha	N.Jo'rayev Bo'lim xodimlari
VI. PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINI ISTIQBOLLI RIVOJLANTIRISH VA AXBOROT-TAHLIL BO'LIMI			
67.	Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish konsepsiyasi kiritilishi ko'zda tutilgan takliflar yuzasida xalqaro moliya tashkilotlari (Xalqaro valyuta jamg'armasi va boshqalar) ekspertlari bilan ishlash hamkorlikda ishlash va ularning tavsiyalarini olish;	2025-yil 31-mart	S.Fayzullayev Bo'lim xodimlari
68.	Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish konsepsiyasi loyihasini O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosariga kiritish;	2025-yil 28-fevral	S.Fayzullayev Bo'lim xodimlari
69.	Pensiya jamg'armasi va Statistika agentligi o'rtasida o'zaro integratsiya asosida taqdim etiladigan "1-pensiya" shakl davlat statistik hisobotini Pensiya jamg'armasining hududiy tuman (shahar) bo'limlari kesimida ma'lumotlar to'g'ri shakllanishi va Statistika agentligiga taqdim etilishini tashkil qilish;	2025-yil 10-mart	S.Fayzullayev M.Razzakov O'.To'rayev

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar
70.	Xalqaro mehnat tashkiloti bilan pensiya tizimining barqarorligini o'lchash uchun aktuar baholash o'tkazish ishlarini tashkil etish;	2025-yil 30-noyabr	S.Fayzullayev Bo'lim xodimlari
71.	Davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;	Har chorakdan keyingi oyning 5-sanasi	S.Fayzullayev Bo'lim xodimlari
72.	1941-1945-yillardagi urush qatnashchilari, 1941-1945-yillarda qamaldagi Leningrad shahrining korxonalarida mehnat qilgan shaxslar va 1941-1945-yillarda fashist konslagerlarida tutqunlikda bo'lgan voyaga yetmagan shaxslar ro'yxatini Mudofaa vazirligiga va Nuroniy jamg'armasiga taqdim etish;	Har oyda keyingi oyning 5-sanasi	S.Fayzullayev O'.To'rayev O.Xoshimov
73.	1941-1945-yillardagi urush davrida mamlakat ichkarisida mehnat qilgan shaxslar ro'yxatini hududiy boshqarmalardan olib umumlashtirgan holda Mudofaa vazirligiga va Nuroniy jamg'armasiga taqdim etish;	Har oyda keyingi oyning 5-sanasi	S.Fayzullayev O'.To'rayev O.Xoshimov
74.	Yoshga doir pensiya olgayotgan 60 yoshdan katta erkarlar hamda 54 yoshdan katta ayollar soni hamda Chernobil AES qatnashchilari to'g'risida ma'lumotlar tyorlab, Nuroniy jamg'armasiga taqdim etish;	Har oyda keyingi oyning 5-sanasi	S.Fayzullayev O'.To'rayev O.Xoshimov
75.	O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar portali Opendata.uz hamda Pensiya jamg'armasining rasmiy veb-saytiga joylashtirish uchun tuman (shahar) bo'limlari hisobida turib pensiya olayotgan shaxslarning umumiy soni, o'rtacha miqdori va hisobot oyida yangi tayinlanganlar soni to'g'risida hududlar kesimida o'zbek, rus va ingliz tillarida 5 ta jadval tayyorlash;	Har oyda keyingi oyning 5-sanasi	S.Fayzullayev O'.To'rayev O'.G'aybullayev
76.	Pensiya jamg'armasi saytiga joylashtirish uchun tuman (shahar) bo'limlari hisobida turib pensiya olayotgan shaxslarning umumiy soni, hisobot davrida yangi tayinlangan pensiya oluvchilar hamda o'rtacha pensiya miqdorlari to'g'risida hududiy tuman (shahar) bo'limlari kesimida ma'lumot tayyorlash;	Har oyda keyingi oyning 5-sanasi	S.Fayzullayev O'.To'rayev O.Xoshimov

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar
77.	Pensiya jamg'armasi ijro etuvchi apparatining boshqarma, bo'lim, sektor va xizmat boshliqlari tomonidan har oylik idoraviy hisobotlar tayyorlanishini tashkil qilish, tahliliy jadvallarini umumlashtirish va kitob shaklida rahbariyatga taqdim etish;	Har oyda keyingi oyning 5-sanasi	S.Fayzullayev O'.To'rayev O'.G'aybullayev
78.	Xorijiy mamlakatlar pensiya ta'minotiga doir statistik ko'rsatkichlar bo'yicha taqqoslama tahliliy ma'lumotlar tayyorlash;	Har chorakda keyingi oyning 10-sanasi	S.Fayzullayev O'.G'aybullayev O.Xoshimov
79.	Pensiyalarning turi bo'yicha soni hamda bir oylik o'rtacha miqdori to'g'risida hududiy boshqarmalar kesimida statistik ma'lumot tayyorlab Statistika agentligiga taqdim etish;	Har chorakda keyingi oyning 10-sanasi	S.Fayzullayev O'.To'rayev O'.G'aybullayev
80.	Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish konsepsiyasi loyihasida berilgan takliflar yuzasidan statistik va tahliliy ma'lumotlar tayyorlash va berilgan tahliliy ma'lumotlarni yangilab borish;	Doimiy	S.Fayzullayev Bo'lim xodimlari
81.	Yuqori tashkilotlardan, Iqtisodiyot va moliya vazirligidan hamda vazirliklardan, qo'mitalardan va agentliklardan kelgan so'rovlarga asosan tegishli ma'lumotlar tayyorlab taqdim etish;	Doimiy	S.Fayzullayev O'.G'aybullayev O.Xoshimov
82.	Pensiya tizimini isloh qilish yuzasidan jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushayotgan murojaatlarga javob berish;	Doimiy	S.Fayzullayev O.Xoshimov O'.G'aybullayev
VII. JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARINI KO'RIB CHIQUISH BO'LIMI			
83.	Pensiya tayinlash va to'lovi yuzasidan kelib tushgan murojaatlarni o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqish, qonunchilikda belgilangan tarzda murojaat muallifi va tegishli tashkilotlarga javob xatlari yuborish;	Doimiy	B.Xasanov A.G'aniyev A.Egamberdiyev Yu.Abulfaizov

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar
			S.Raxmonov
84.	Pensiya jamg'armasi tizimiga jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushayotgan murojaatlarni masala kesimida tahlil qilib rahbariyatga kiritish;	Doimiy	B.Xasanov Yu.Abulfaizov
85.	"Ishonch telefoni" orqali jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushayotgan murojaatlarni tahlil qilish va eng ko'p tushayotgan masalalar yuzasidan rahbariyatga ma'lumot kiritish;	Doimiy	B.Xasanov A.Egamberdiev
86.	Pensiya jamg'armasi ijro etuvchi apparatida jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini ijro etuvchi apparat rahbariyati va mas'ul xodimlari tomonidan qabul qilinishini tashkil qilish;	Doimiy	B.Xasanov S.Raxmonov
87.	Tizim bo'yicha kelib tushayotgan barcha murojaatlarni jamlash va rahbariyatga kiritib borish;	Har oyda 10-sanasi	B.Xasanov Yu.Abulfaizov
88.	Pensiya jamg'armasi hududiy boshqarmalari tomonidan o'tkazilgan sayyor qabullar to'g'risida ma'lumotlarni jamlash;	Har oyda 5-sanasi	B.Xasanov S.Raxmonov
89.	Pensiya jamg'armasi ijro etuvchi apparatiga jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushayotgan murojaatlar bo'yicha hisobotlarni Vazirlar Mahkamasiga taqdim qilish;	Har chorakda keyingi oyning 7-sanasi	B.Xasanov Yu.Abulfaizov
90.	Pensiya jamg'armasi tizimiga jismoniy va yuridik shaxslardan pensiya ta'minotiga doir masalalarda kelib tushayotgan murojaatlarni tuman (shahar) bo'limlari kesimida jamlash va rahbariyat hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etish;	Har chorakda keyingi oyning 7-sanasi	B.Xasanov Yu.Abulfaizov
91.	Ijro etuvchi apparatning kengaytirilgan yig'ilishlari va selektor yig'ilishlariga, hududiy boshqarmalar tomonidan murojaatlarni ko'rib chiqishda yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklar to'g'risida tahliliy-tanqidiy ma'lumotlar tayyorlash;	Har chorakda keyingi oyning 10-sanasi	B.Xasanov A.G'aniyev A.Egamberdiyev Yu.Abulfaizov S.Raxmonov

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar
92.	Ijro etuvchi apparati rahbariyati tomonidan reja-jadval asosida joylarda o'tkazilgan sayyor qabullar bo'yicha dalolatnomalar rasmiylashtirish;	Reja-grafik bo'yicha	B.Xasanov A.G'aniyev A.Egamberdiyev Yu.Abulfaizov S.Raxmonov
93.	Pensiya jamg'armasi Sirdaryo va Toshkent viloyatlari boshqarma hamda tuman (shahar) bo'limlarida jismoniya va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish va ish yuritish holati yuzasidan o'rganish;	2025-yil 8-may	B.Xasanov A.G'aniyev A.Egamberdiyev Yu.Abulfaizov S.Raxmonov
94.	Pensiya jamg'armasi Andijon, Buxoro, Navoiy, Namangan, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahar boshqarma hamda tuman (shahar) bo'limlarida jismoniya va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish va ish yuritish holati yuzasidan o'rganish;	2025-yil 7-iyul	B.Xasanov A.G'aniyev A.Egamberdiyev Yu.Abulfaizov S.Raxmonov
95.	Pensiya jamg'armasi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Samarqand va Xorazm viloyatlari boshqarma hamda tuman (shahar) bo'limlarida jismoniya va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish va ish yuritish holati yuzasidan o'rganish;	2025-yil 6-oktabr	B.Xasanov A.G'aniyev A.Egamberdiyev Yu.Abulfaizov S.Raxmonov
96.	Pensiya jamg'armasi Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari boshqarma hamda tuman (shahar) bo'limlarida jismoniya va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish va ish yuritish holati yuzasidan o'rganish;	2025-yil 29-dekabr	B.Xasanov A.G'aniyev A.Egamberdiyev Yu.Abulfaizov S.Raxmonov
VIII. MOLIYA-IQTISOD BO'LIMI			
97.	Pensiya jamg'armasi ijro etuvchi apparatining budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha 2025-yil uchun xarajatlar smetasini tuzish, Iqtisodiyot va moliya vazirligi davlat	2025-yil 31-yanvar	B.Gaparov D.Malikjanov

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar
	organlari, prokuratura va sud tizimi faoliyatini moliyaviy ta'minlash boshqarmasidan ro'yxatdan o'tkazish;		
